www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Payariq tumanida joylashgan qadimgi yodgorliklarning o‘rganilishi va ulardan turizm maqsadlarida foydalanish istiqbollari.

Fayziyev Farrux Uktamovich

Annotatsiya. O’zbekiston Respublikasi prizidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning tashabbusi bilan bugungi kunda respublikamiz hududida turizimni rivojlantirishga alohida katta etibor qaratilmoqda. Bu etibor natijasida mamlakatimiz hududida joylashgan tarixiy arxeologik yodgorliklarni qayta o’rganish masalasi jadal olg’a surulmoqda. Manashu munosabat bilan maqolada Samarqand viloyati Payariq tumanida joylashgan tarixiy qadamjolar haqida qisqacha malumot berilgan. Darxaqiqat Payariq tumani yodgorliklari O’zbekiston tarixida salmoqli o’rin tutadi. Buni o’lkada joylashgan Ko’ktepa, Sayiltepa, Chelaktepa kabi arxeologik yodgorliklardan ham bilib olishimiz mumkun. O’lkada sivilizatsiya ilk temir davridan jadal rivojlangan va ilk o’rta asrlar davridan zich axoli istiqomat qiladigan teritoryalardan biriga aylangan. Qadimgi ajdodlarimizni bu o’lkada yaratgan madaniyatlarini o’rganish va buni keng ommaga malum qilish bugungi kun lzarb talablaridan biri xisoblanadi. Buning natijasi o’laroq yurtimiz boy tarixi yanada boyiydi va o’lkaning turizim saloxiyati kengayadi.

Kalit so’zlar: Samarqand, Payariq, o’lka, qadamjo, Sayiltepa, Chelaktepa, To’sinsoy, turizim, tuman.

Аннотация. На инициативе Призидент Республики Узбекистан Мирзийоев Шаврат Миромонович, особое внимание уделяется развитию туризма в стране. В результате данные реконструкции исторических археологических памятников, расположенных на территории нашей единственной политики, быстро продвигаются. В статье в статье содержится краткий урок в исторических местах, расположенных в термиотике Туламана в регионе Самарканд. В связи с тем, что памятники района Пэрарик играет значительную роль в истории Узбекистана. Это также возможно учиться на археологических памятниках в Коктепе, Сайлтпа, Чактепа, расположенном в стране. Цивилизация в стране была быстро развита с первого железного периода и стала одним из торудиентов, живущих в первом средневековье. Сегодня сегодня мы являемся одним из требований Lazarb сегодня для изучения культур, созданных нашими древними древними странами, и сегодня идентифицировать его для широкой общественности. В результате богатая история нашей страны богаче, а туристические туристические пространства.

Ключевые слова: Самарканд, Паярик, страна, Касарихо, Сайлтепа, Челактепа, Лавинсей, Туман, район.

Abstract. At the initiative of the prizye of the Republic of Uzbekistan Mirziyoyev Shavkat Miromonovich, a special attention is paid to the development of tourism in the country. As a result, the data of the reconstruction of historical archeological monuments located on the territory of our sole policy is promoted rapidly. In the article, the article provides a brief lesson in the historic sites located in the Termiotic Tulaman of Samarkand region. Indicitely, the monuments of the Payarik district plays a significant role in the history of Uzbekistan. This is also possible to learn from archeological monuments in Koktepa, Sayiltepa, Chaktepa, located in the country. Civilization in the country has been rapidly developed from the first iron period and has become one of the thorudients living in the first Middle Ages. Today we are one of the requirements of the Lazarb today today to study the cultures created by our ancient ancient countries and to identify it to the general public today. As a result, the rich history of our country is richer and the country's tourism potential expanses.

Key words: *Samarkand, Payariq, Country, monument, Sayiltepa, Chalektepa, To’sinsoy, Toomun, District.*

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Samarqand tarixi haqida birinchilardan bo'lib Abu Sa'id Abdurahmon ibn Muhammad al-Idrisi (vafoti 405/1015 y.) «Tavorixi Samarqand» asarini yozadi. Umuman, Samarqand shahri haqida yozilib, bizning davrimizgacha etib kelgan asarlar jumlasiga Abu Xafs Najmiddin Umar ibn Muhammad an-Nasafiy as-Samarqandiyning «Al qand fi tarixi Samarqand» asari, Abu Fazl Muhammad ibn Abu Jamil ibn Abdul Malik ibn Haydar as-Samarqandiyning «Qandiyai xurd», Samarqand qozi kaloni tarixchi Abu Toxirxoja ibn Abu Sa'idxoja Samarqandiyning «Samariya» asarlari kiradi.

Ushbu asarlarda Samarqandning bunyod etilishi tarixi, shahar nomining kelib chiqishi, shuningdek shaharning osori-atiqalari, madrasa-masjidlari, muqaddas qadamjolari, ziyoratgohlari va mozorlariga doir qimmatli ma'lumotlar bayon qilingan. Ayniqsa Abu Fazl as-Samarqandiyning «Qandiya» va Abu Toxirxojaning «Samariya» asarlarida XIX-asrdagi Samarqand ziyoratgohlari va qadamjolari tarixi to'g'risida ancha batafsil ma'lumotlar berilgan[1, 91 b.].

X asrga oid arab tilida bitilgan yozma manbalarda, Samarqand viloyatining arab xalifaligi bosqinidan keyingi, ayrim hollarda ungacha bo'lgan hududiy bo'linishi, geografik tavsifi keltirilgan. Arab geograflari va sayyohlari Istahriy (850-934), Ibn Havqal (vafoti 976) ma'lumotlariga asoslanib V.V. Bartold (1869-1930) Samarqand viloyatida 12 ta «rustoq» bo'lgan deb yozadi. Sug'd hukmdorliklariga qarashli kichik mulklar o'sha davrdagi arab-fors asarlarida ko'proq rustoqlar shaklida qayd etilgan. Har bir «rustoq» o'z boshqaruvchisiga ega bo'lib, hukmdorlik markaziga itoat etgan.

Samarqand rustoqlarining oltitasi Zarafshon daryosining janubida (Panjikent, Varaqsar, Maymurg', Sanjarfag'n, Darg'om, Abgor) va oltitasi shimolida (YOrkent, Burnamad, Buzmajon, Kabudanjakent, Vador va Marzbon) bo'lgan. Bu rustoqlar daryo yo'nalishi bo'yicha sharqdan g'arbga qarab tartib bilan sanalgan.

Samarqand viloyatini sharqdan g'arbga qarab kesib o'tuvchi Zarafshon daryosi qadimdan tarixiy manbalarda turli nomlar bilan qayd etilgan. Dastlab «Avesto»da *Daytiya* shaklida tilga olingan. Mutaxassislar bu nomni *xosiyatli suv, muqaddas suv* deb izohlaydilar. Yunonlar *Daytiya* so'zini tarjima qilib *Politimet – ko'p xosiyatli suv, o'ta muqaddas suv* deb ataganlar. Sug'd tilida daryoning *Sug'd, Jirt, Jam, Somjan* nomlari ham ma'lum; paxlaviy tilida *Nomiq (mashhur, xosiyatli, muqaddas)*; fors tilidagi manbalarda *Rudi Mosaf, Rudi Sharg'* deyilgan; arabcha manbalarda *Haramkom* (arabcha *haram – muqaddas*, buxoroliklar shevasida *kom – daryo, ariq*), *Vodiy us-Sug'd, Nahr ul-Buxoro* kabi nomlari qayd qilingan (arabchada *vodi* va *nahr – daryo*). Sug'd xujjatlarida (XIII asr boshlari) *zrvp* yoki *zrnvp* shaklida uchraydigan joyni sug'dshunoslar xozirgi *Zarafshon* nomining dastlabki qaydi bo'lishi mumkin deydilar[2, 63 b.]. Zarafshonga nisbatan Ko'hak atamasi Nasafiy (XII asr), Hafizi Abro', «Bobunoma», «Shayboniynoma» asarlarida uchraydi. XVIII asrga kelib *Zarafshon* nomi ham tilga olinadi. Bu atama ilk bor «Tarixi Roqimiy» asarida uchraydi. Bu nomning ma'nosi haqida turli fikrlar bor. Ba'zilar daryo tilla baravar obi hayot keltirgani uchun *Zarafshon* deydilar. Ba'zilar esa *zar sochuvchi* daryo deydilar.

Tadqiqot hajmi va unda yoritilishi ko'zda tutilgan hudud bilan aloqasi bo'lmagani uchun Zarafshonning shimolida joylashgan rustoqlar haqida to'xtalinmadi. V.V. Bartold asarlari asosida yuqorida keltirilgan tartib bo'yicha janubiy rustoqlarga qisqacha tarif berildi:

Panjikent («Besh shahar») sug'dcha besh ma'nosidagi so'zdan shakllangan[3, 82 b.], hosildorlik ayniqsa bodom va yong'oq hosili bo'yicha birinchi o'rinda turgan.

Varaqsar sug'dcha *varq (varg') – to'g'on* so'zidan olingan bo'lib, to'g'onboshi degan ma'noni anglatadi. Bu erdan to'rtta rustoq (Varaqsar, Maymurg', Sanjarfag'n, Darg'om)ni sug'oradigan uchta asosiy kanal boshlangan. Juda kata ahamiyatga ega bo'lgan bu to'g'onning arab xalifaligi bosqiniga qadar mavjud bo'lganligini, sug'dliklar qo'zg'olon ko'targanda xalifalik qo'shinlarining bu erga qilgan yurishlari ham tasdiqlaydi. X asrda to'g'on xavfsizligi uchun javobgar bo'lgan varaqsarliklar buning uchun xiroj solig'idan ozod etilgan. Bu joyning hozirgi Rabotixo'ja deb nomlanishi shu erda dafn etilgan avliyo Xoja Zakariyo Varroq (XII asr) yoki 844 yilda vafot etgan Xoja Abu Zakariyo Varaqsariy (qabrtoshi Toshkent muzeyida saqlanadi) bilan bog'liq.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Maymurg‘da qasrlar ko‘p bo‘lgan. Maqdisiy (947-1000) uning asosiy qishlog‘i Rivdadda, aynan ishxidlar (Sug‘dning arablargacha bo‘lgan hukmdorlari)ning qasri joylashganligini qayd etadi. Sam’oniy (1113-1167) bergan ma’lumotga ko‘ra Rivdad Samarqnddan atigi bir farsax masofada joylashgan. XII asrda bu erda yilning ma’lum vaqtida harbiy lager bo‘lgan.

Sanjarfag‘n nomi ikki qisdan iborat: sanskritcha *sangarma – budda monastiri* va *fag‘n (vag‘n) – ibodatxona*. Olimlarning fikricha Sanjarfag‘n nomi Yangiariq kanalining o‘ng tomonidagi Zanjrbog‘ qishlog‘i nomida saqlanib qolgan.

Darg‘om rustoqi juda hosildor sanalgan va o‘zining uzumzorlari bilan mashhur bo‘lgan. Varaqsardan Darg‘omning g‘arbiy chegaralarigacha sug‘oriladigan hududning uzunligi 10 farsax va eni 4 farsax bo‘lgan. Bu rustoq Darg‘om kanalidan suv ichgani uchun, uning nomi bilan atalgan bo‘lsa kerak. Yunon olimi Klavdiy Ptolemey tuzgan xaritada bu kanal *Dargomoniy* deb nomlangan. Boshqa tarixiy manbalarda *Iskandargom* va *Iskidarg‘om* shaklida qayd qilingan. Sug‘d tilida *iskodar – baland, yuqori* demakdir; hind-evropa tillarida *kom, kam, kem – daryo* degani[2, 63 b.].

Abgor rustoqida sun’iy sug‘orish bo‘lmagan, chunki Zarafshonning suvi ungacha etib bormagan. U ikki kunlik yo‘l uzunligida joylashgan bo‘lib, yaylovlari, juda ko‘p hosil beradigan lalmi shudgorlari va qishloqlarining ko‘pligi bilan boshqa rustoqlardan ajralib turgan. Bir hosil yilida Abgor dalalaridan yig‘ishtirilgan hosil bilan butun Sug‘d aholisini boqish mumkinligiga Ibn Havqalni ishontirishgan. Maqdisiyning yozishicha esa butun Sug‘d va Buxoro aholisini ikki yil boqish mumkin ekan. Ayrim hollarda alohida qishloqlari ikki farsax uzunlikdagi erni egallagan. Samarqanddan ikki kunlik yo‘l pastda, Qoradaryoning janubiy qirg‘og‘idan Fay kanali ajralib, ikki kunlik yo‘l uzunligida cho‘zilgan. Bu arig‘ bilan sug‘orilgan joylar Sug‘dning eng hosildor va aholisi ko‘p qismi hisoblangan. Fay ham qachonlardir alohida hududni tashkil etgan. Tarixchi Tabariyda (836-923) Fayning «malig»i, ya’ni hokimi eslatib o‘tilgan.

«Samarqand viloyati hududi janubda alohida rustoqni tashkil etuvchi Shovdor tog‘larigacha chuzilgan. Bu erda Istaxriy qayd etib o‘tgan, Ibn Havqal batafsil ta’riflagan nestorianlarning qal’a va cherkovlari joylashgan qishlog‘i bo‘lgan» deb yozadi V.V. Bartold o‘zining bir asarida. Boshqa tadqiqotida esa yuqoridagi oltita janubiy rustoqlarni ta’riflagach shunday yozadi: «Bu rustoqlardan janubda, ular bilan tog‘larning orasida 10 farsax uzunlikdagi erga cho‘zilgan Shovdor rustoqi bo‘lgan. Bu erda shudgorlarga suv Zarafshondan emas, tog‘dan oqib keladigan soylardan chiqarilgan»[7, 144 b.].

Har ikkala asardagi ta’riflar bo‘yicha rustoqlar soni ettita bo‘lib chiqadi. Shuning uchun N.N. Negmatovning Samarqand viloyatida 13 ta rustoq bo‘lgan degan fikri haqiqatga yaqin qo‘rinadi.

V.V. Bartoldning fikricha Shovdor tog‘ tizmasi degan ma’noni anglatadi. S.Qoraevning fikricha Shovdor sug‘dcha *shov – qora, dor – slanets tosh* so‘zlaridan olingan. O‘rta Osiyoda kvars ohaktosh, oq marmar kabi oqish toshlardan iborat tog‘lar Oqtog‘ (Oqtov); slanets, porfirit kabi qaramtir toshlardan tuzilgan tog‘lar Qoratog‘ (Qoratov) deyiladi. Demak, Shovdor Samarqand yaqinidagi Qoratog‘ning sug‘diycha nomidir. T.Muzaffarovning «Shovdor nomi «Shohnoma»da qayd etilgan Rustami dostonning singlisi Shabdor ismining o‘zgargan shaklidir» degan fikri hech qanday ilmiy asosga ega emas.

Samarqand viloyatining janubiy chegaralarini tashkil etgan bu tog‘ning nomi keyinchalik, XII asrdan boshlab, Zarafshon daryosidan shu toqqacha bo‘lgan hududga va shu hududni sug‘oradigan kanalga nisbatan ham ishlatilgan.

Mo‘g‘ullar O‘rta Osiyoni bosib olgach, o‘zlarining ijtimoiy tuzumiga xos bo‘lgan «o‘nlik», «yuzlik», «minglik» tizimini joriy qildilar. Mavjud ma’muriy bo‘linmalarni ifodalab kelgan *rustoq* o‘rniga, *tuman* atamasi paydo paydo bo‘ladi. *Tuman* mo‘g‘ulcha *“tumin”* so‘zidan olingan bo‘lib, o‘n ming degan ma’noni anglatadi. Oldingi *rustoq*qa nisbatan kattaroq bo‘lgan *tuman* o‘n ming kishilik qo‘shin etkazib bera oluvchi emas, balki o‘n ming aholisi yoki oilasi bo‘lgan ma’muriy hududni anglatgan. Har bir *tuman* buncha qo‘shin etkazib berishga qodir bo‘lmagan. *Tuman*larning paydo bo‘lishi V.V. Bartold va A.YU. YAkubovskiy taxmin qilganlaridek Kebekxon (1318-1326) davrida

emas, ancha oldin sodir bo‘lgan. Chunki *tuman* atamasi ma’muriy-hududiy birlik ma’nosida 1299 yilga oid vaqf hujjatida keltirilgan.

Turli davrlarda Samarqand viloyati tumanlarining soni va nomi bir xil bo‘lmagan. Bu masalani kompleks tadqiq etish dolzarb vazifalardan biridir. Qayd etish kerakki Temuriylar davridan to Rossiya imperiyasi bosqinigacha bo‘lgan davrdagi Samarqand viloyatining tarixiy geografiyasiga bag‘ishlangan dastlabki tadqiqotlar XIX asrning oxirlarida amalga oshirilgan bo‘lib, afsuski hozirgacha yagona bo‘lib qolmoqda. Vaholanki, V.V. Bartold ham V.L. Vyatkin ham o‘z ishlarini zaif jihatlarini o‘sha vaqtdayoq qayd etgan edilar. Shunday bo‘lsa-da bu asarlar bugungi kunda ham o‘zining ilmiy qiymatini yuqotmagan. Ularni yanada to‘ldirish davr talabi. Chunki ikki rus olimi nazaridan chetda qolgan, mavzuga oid ko‘plab manbalar mavjudki, ulardan foydalanish bugungi kunda tadqiqotchilar uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi.

To‘sinsoyning rang-barang yodgorliklari

Payariq tumanining shimoliy sarxadlarini egallagan Nurota tog‘larining janubida joylashgan keng hududda bu tog‘dan oqib keluvchi o‘nlab soylar mavjud. Ularning suvlari asosan bu soy yoqalab joylashgan qishloqlar aholisining ekin-tekinlarini sug‘orishga ishlatilgan.

Payariq qadim zamonlardan boshlab o’zining tabiati orqali insonlarning makoniga aylangan. Zero, uning yer ustki qismida daryolar olib kelgan alyuvial yotkiziklar qoplangan. Iklimi kontinental, Shimol va shimoli-sharkdan toglar Arktikadan keluvchi sovuk shamolni tusib turadi. Yiliga o’rtacha 200-300 mm. yogin yogadi. Tuprogi qadimdan sugoriladigan 1-2% chirindili bo’z tuproq. Bular esa o’z navbatida qadim qadimdan insonlarni ushu bu hududda istiqomat qilishiga va faoliyat ko’raatishiga olib kelgan[4, 76 b.].

Beshkal qishlog‘idan 1,5 km. yuqoriroqda, sharq tomonda Yuqorisoy va Nakurtsoyning qo‘shilishidan To‘sinsoy hosil bo‘ladi. Bu soy hozirgi Samarqand viloyatining Qo‘shrabot, Payariq va Ishtixon tumanlari hududlari bo‘ylab oqadi. Daryo vohasidagi yuzlab gektar yerlarni sug’organligi bois, uning quyi oqimida ko‘pincha suv tanqis bo‘ladi. O‘tgan asrning 70-80 yillarida To‘sinsoyning o‘rta oqimida suv ombori qurilishi munosabati bilan uning boshlanishidan to Zarafshon-Oqdaryoga quyilishigacha bo‘lgan hudud, ya’ni To‘sinsoy vodiysi arxeologiya instituti olimlari tomonidan muffasal ko‘zdan kechirilgan va turli tarixiy davrlarga oid 65 ta arxeologik yodgorlik hisobga olingan (Rostovsev, Ivanitskiy, Vafayev, 1983, c 248-262). Ular antik, ilk o‘rta asrlar va o‘rta asrlar shaharlari va qishloqlari xarobalari, ko‘chmanchilar mozor-qo‘rg‘onlari, mahalliy o‘troq zardushtiy xalqlarning daxmalari, turli davrlarga oid qoyatosh suratlari va hokozalar. Bu turdagi rang-barng arxeologik yodgorliklarning mavjudligi va son jihatidan ham juda ko‘pligi To‘sinsoyning o‘rta oqimida joylashgan Dorinsoy qishlog‘idan shimoli-g‘arbda, qurigan soy yoqalarida bir necha dona ishlov berilgan tosh buyumlar topilgan. Ularning neolit davriga oidligi aniqlangan (Rostovskiy, Ivanitskiy, Vafayev, 1983, c 256).

To’sinsoy vodiysida bir necha o’nlab arxeologik yodgorliklarning mavjudligi, ularning ayrimlari olib borilgan qazishma ishlari natijasida qo’lga kiritilgan osori-atiqalar bu vodiyda ajdodlarimiz minglab yillar davomida uzkusiz yashab kelganliklarini, soy bo’ylarida dehqonchilik qilishib ekin maydonlari va bog’-rog’lar barpo etilganliklarini, bu vodiyda shaharlar, qishloqlar, qal’alar, ibodatxonalar, masjidlar qurganliklarini, shuningdek tarixiy jarayonning turli bosqichlarida o’sha davrlarga xos yashash sharoiti va oziga xos madaniyat yaratganliklarini ko’rsatadi. Biz bu o’rinda vohadagi qadimiy shaharlar va yirik aholi manzilgohlarinig ayrimlari ustida qisqacha to’xtalamiz.

Arxeologik qidiruvlar davrida to’sinsoy Oqdaryoga quyilishi joyida mahalliy aholi tomonidan Qo’shtepa deb nomlangan qadimiy shaharchaning qodilari aniqlangan.Yodgorlik uchta tepaalikdan iboarat bo’lib, umumiy maydoni 10 gegtardan ortiroq.Shaharcha hududida eramizning V-VI hamda IX-X asrlariga oid kulolchilik buyumlaring parchalari topilgan. Topilmalar shaharni ilk o’rta asrlarda va

o’rta asrlarda faoliyat yurgizilganligi ko’rsatadi. Mitan qishlog’ida, Tosinsoyning o’ng qirg’og’ida yana bir shaharchaning qoldiqlari bo’lib, u Arktepa deb yuritiladi[6, 24 b.].

Arktepaning mahobatli arki soy bo’yida joylashgan,maydoni 125x110 m, balandligi esa 20-21 m,arkka va shahristonning umumiy maydoni13ga. Yodgorlikda olib borilgan arxeologik qazuvlarda eramizning V-VIII-X hamda XVII-XIX asrlariga oid kulolchilik buyumlari topilgan. Arxeologlar tomonidan Arktepa joylashgan hududda 20 dan ortiq turli davrlarga oid xar xil kattaliklardagi yodgorliklar ro’yxatga olingan bo’lib ular orasida eng yirigi mana shu yodgorlikdir. Arktepa To’sinsoyning quyi oqimidagi ilk o’rta asrlar qishloqlari uchun markaziy shaharcha vazifasini o’tagan.

To’sinsoy vodiysining o’rta oqimidagi, qolaversa antic va ilk o’rta asrlarda Katta Sug’d hududidagi eng yirik yodgorlik shubhaasiz, xozirgi Orlot qishlog’I yaqinida, To’sinsoyning chap sohilida joylashgan Qo’rg’ontepa shahar xarobalaridir. Yodgorlikda 1979-1984 yillar davomida San’atshunoslik institutining akademik G.A.Pugachenkova boshchiligida ekspeditsiya olimlari keng ko’lamli tadqiqotlar ilib borilgan.Arxeologik tadqiqotlar natijasida nafaqat To’sinsoy vodiysi, balki butun Sug’d qolaversa Orta Osiyo tarixiga oid juda ko’plab ma’lumotlar qo’lga kiritilgan. Arxeologik ma’lumotlar davomida olingan matreallar ko’ra, shahar mudofasi antic davrda janub va shimol yo’nalishi bo’yicha bunyod etilgan.shahar bir necha qismdan iborat bo’lib, markaziy qismi shartli ravishda Shahriston-1 deb ataladi, maydoni 360x300 m.Shahristonning markazida mahobatli ark qad ko’targan.Shahriston ham, uning markazidagi ark ham barcha tomondan mudofalangan. Antik devorlari ustida 1-1.2 m balandlikka ega bo’lgan qatlamlar mavjud. Antik davr shaharining tashqi devorlari qatlami paxsadan qurilgan. Devorning qalinligi uning quyi qismida 5 metrgacha yetadi, saqlanish balandligi 3 m Shahar rivojlanishining muayyan davrida Shahriston-I ning yangi manzillari paydo bo’ladi. Tez orada bu hudud ham mudofa devorlari bilan o’rab olingan va shu tariqa tashqi shahar – Shahriston –II. Shahriston –II egallagan hudud hisobiga shaharning umumiy maydoni kengayib, 700x600 metrga (42g) yetadi. Shahar darvozasi shahar janubi-g’arbida, ya’ni asosiy savdo yo’llari o’tgan tomonda joylashgan[4, 75 b.].

Ilk o’rta asrlarga kelib shaharning mudofa devorlari o’z ahamiaytini yo’qotib boradi va ularning ustidan aholining oddiy uy-joylar qurola boshlagan. Lekin shahar arki ilk o’rta asrlarda ham o’z mudofaa qobilyatini yo’qotmasdan,paxsadan va xomg’ishtdan bunyod etilgan. Shahriston-II hududida yana bir tapalik bo’lib, u mahalliy aholi yomonidan **Tillatepa** deb nomllangan. Mana shu tillatepada arxeologik tadqiqotlar natijasida ulkan olov ibodatxonasining qoldiqlari ekanligi aniqlangan.Qo’rg’ontepa butun To’sinsoy vodiysining markaziy shahri bo’lishi bilan birga, Sug’dagi eng yirik shaharlaradan biri sifatida faoliyat yuritgan. U Samarqanddan shimolga, Sug’dning temir darvozasi orqali O’rta va quyi Sirdaryo boylaridagi shaharlarga qarab yo’nalgan yirik va serqatnov karvon yo’li ustida joylashgan. Antik va ilk o’rta asrlarda Qo’rg’ontepaning rivojlanishi, bu davrda savdo yo’lining nihoyatdda rivojlanganligiga bog’liq bo’lgan.

To’sinsoyning yuqori oqimidagi yirik yodgorliklardab biri **Qo’shshatepa** (Safartepa) bo’lib, yodgorlik Beshkal qishlog’idan ichkariroqda, sharq tomonda joylashgan. Yirik qishloq xarobasi bo’lgan bu ydgorlikning maydoni 380x130 m tshkil etadi. Tadqiqotlar davrida shaharcha xarobalarining o’pirilgan qismlaridagi madaniy qatlamlar tozalandi va bu qatlamlarda I-IV,VI-VII hamda XI-XII asrlarga oid kulolchilik buyumlari borligi aniqlangan. Bashkal qishlog’idan 1,5 km yuqoriroqda, sharq tomonda Yuqorisoy va Nakurtsoyning qo’shilishidan To’sinsoy hosil bo’ladi. Mana shu soylarning qo’shilishi joyida maydoni 30 g bo’lgan yirik shahar zarobalari yastanib yotgan.Shaharning g’arbiy qismida, tomonlari 136x125 m, balandligi 15 m bo’lgan ulkan tepalik Ark- Kuxandiz qad ko’tarib turibdi. Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davrida shaharcha xarobalarining o’prilgan qisimlaridagi qatlamlar organildi. Bu qatlamlarda mil.avv III asrdan boshlab XI-XII asrlarga oid kulolchilik buyumlari aniqlangan[5, 37 b.].

Sayiltepa ostadonlari. To’sinsoy vodiysining rang-barang yodgorliklari sarasiga uning irmoqlaridan biri bo’lgan Yuqorisoy bo’yida joylashagan Sayiltepadan topilgan, ilk o’rta asrlarda bu soy bo’yida yashagan, zardushtiylik diniga e’tiqod qilgan aholi tomonidan qishloqdoshlarini dafn

etishga mo'ljallangan ostadonlar-ossuariylarni kiritish mumkin (Ivanitskiy,1989,c53-59). Arab istilosigacha bo'lgan davrda O'rta Osiyo mahalliy aholisisning dafn marosimlarida keng foydalaninlagan, dafn idishlari-ostadonlar mamlakatimizdagi Xorazm, Sug'd, Jizzax va Toshkent vohalari yodgorliklarida, kengroq ma'noda Turkmanistondagi qadimgi Marv shahri hududidan, Qozog'istondagi Taroz shahri (hozirgi Jambul shahri) hududidan va boshqa yodgorliklrda ko'plab marta qo'lga kiritilgan. O'rta Osiyo hududida olib arxeologik tadqiqotlardan ma'lumki, ostadonlarda faqat zardushtiylik etiqod qilinganaxoli emas, balki ba'zi xollarda qadimiy nasroniylar va yaxudiylar ham dafn qilinganlar.Xorazm vohasidagi Mizdaxqon yodgorligida ochilgan kattakon daxmadan zardushtiylikning va nasroniyliklarning kata miqdordagi ostadonlari topilgan.Bu vohadagi topilgan ostadonlar ichida ayniqsa Sug'd hududidan topilganostadonlar keskin ajralib turadi.

O'rta Osiyo, xususan, Sug'dda olib borilgan va hozirgi kunlarda ham olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar bu vohada qadimdanoq o'ziga xos mdaniyat mavjud bo'lganligidan daloat beradi.O'rta Osiyoning hududlarida qadimda va ilk o'rta asrlarda, xususan ,islom dini qaror topgunicha qadar yaratilgan yaratilgan madaniyatning shakllanishi va rivojida mana shu davrda bu hududda amalda bo'lgan dinlarning va turlicha diniy qarashlarning ta'siri juda hamkuchli bo'lgan. Diniy dunyoqarash va diniy ta'savurlar o'sha davr aholisining kundalik turmush faoliyatiga juda chuqur kirib borganligi, arxeologik matreallarda yaqqol namoyon bo'ladi[4, 75 b.].

Islom dinigacha O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan dinlardan biri zardushtiylik tog'risida va bu dinning muqaddas kitobi "Avesto" da ko'plab ma'lumotlar saqlangan. Lekin biz bu o'rinda bu kitob tog'risida, zardushtiylik dini ta'limoti va uning xususiyatlari tog'risida muffasal to'xtalib o'tirmaymiz,chunki bu mavzuda o'nalab turlicha adabiyotlar, ilmiy kitoblar, yuzlab maqolalar nashr etilgan. Albatta, biz fikr yuritayotgan kata kata Sug'd hududida ham zardushtiylik dini ko'p asrlar davomida amalda bo'lganligini Ko'ktepa markazidagi ibodatxona, Chelak shahridagi Desi ibodatxonasi, Orlat qishlog'idagi Qo'g'ontepada ochilgan olov ibodatxonalari yaqqol misol bo'ladi.

Zardushtiylok dini bilan bog'liq me'moriy inshooylarda o'tkazilgan marosimlardan juda ko'plab mahalliy diniy urf-odatlar balki, ular haqida faqat arxeologiya fani, arxeologik tadqiqotlar natijasida qo'lga kiritilgan ashyoviy dalilllar ma'lumot beradi. Orta Osiyo hududidagi yodgorliklarda topilgan dafn idishlari – ostadonlar ular orasida juda muxim sanaladi. Bu o'rinda shuni aloxida qayd etish lozimki, Sosoniylar hukmronligi davrida zardushtiylik dini davlat dini darajasiga ko'tarilgan. Eronda dafn udumlarida ostadonlar umuman uchramaydi, ya'ni eronlik zardushtiylar vafot etgan dindoshlarini ostadonlarga solib dafn etishmagan. Ostadonlar O'rta Osiyodagi zardushtiylik diniga sig'inishgan axoli o'rtasidagi keng tarqalgan, xolos.Ularni kulollar yasashgan va spool xumdonlarda pishirishgan. Odatda ostadonlar uzunligi 40-45 sm,eni 30-35 sm,balandligi 25-35 sm o'lchamdagi, t'rtburchak yoki aylana shaklda yashoksimon spool tobutcha bo'lib, odatda yassi, konussimon yoki piramidasimon qopqoqlar bilan yopilgan. Ostadonlarga vafot etgan odamning turlicha usullar bilan tozalangan suyaklari solingan.

Zardushtiylik dinida yer,osmon, suv, olov muqaddas hisoblangan. Hatto vafot etgan odamning murdasi ham xarm hisiblangan. Murda maxsus maxsus dahmalar ustida qoldirilgan. Arab tarixchisi At-Tabariyning ma'lumotiga ko'ra, arablar kelguniga qadar Samarqand mudofaa devorlarining orqasida odam suyaklarini tozalaydigan butun boshli mahalla bo'lganini takidlaydi. Sayiltepa ostadonlari o'z yasalish usullari va tashqi bezaklariga ko'ra Toshkent viloyati Chirchiq vodiysidagi Niyozboshi qishlog'idan topilgan ostadonlarga oxshash (Alimov, Buryakov, Buryakova, Duke, 1975.c.495). Zardushtiylarning muqaddas kitobi Avestoda , xususan uning keyinchalik paydo bo'lgan Videvdat qismida o'lganlarning go'shtlarini itlarga va qushlarga yedirish, lekin suyaklarini, albatta saqlash lozimligini aytiladi. Shu tariqa, biz yashayotgan O'rta Osiyo hududida arablar kelgunicha odam suyaklari ostadonlarda saqlab dafn etish keng tarqalgan [5, 36 b.].

Orlat mozor-qo'rg'onlari. Orlot qishlog'idagi qadimgi yirik shahar xarobasi Qo'rg'ontepa olov ibodatxonasidan shimol tomonda, bu yerdan oqib o'tuvchi Sangnoqsoy ortida uncha baland bo'lmagan qirliklar ustida, mayda-mayda tepaliklar joylashgan, mahalliy kishilarning guvohlik berishicha ,ushbu hududlarda g'alla ekilmasdan avval ularning soni yuzdan ham ko'p bo'lgan, lekin

yerlarning haydalishi davrida ularning aksariyati tekislanib ketgan. Bu tepaliklar majmualari nafaqat O'zbekistonning balki, butun Osiyoning va janubiy Sibirning ko'plab vohalarida uchraydi. Bu o'lkalar hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bunday mo'jaz tepaliklarning kata qismi Markaziy Osiyoning beadad kengliklarida ko'chib yurib hayot kechirgan chorvador, ko'chmanchi qabilalarning mozor-qo'rg'onlari ekanligi aniqlangan. Chorvodor ko'chmanchi qabilalar Sug'dning deyarli barcha cho'l hududlarida va ularga tutashib ketgan bepayon Qizilqum dashtlarida ham umr kechirganlar. Shuning uchun bu kabi mozor-qo'rg'onlar Sug'dning ko'plab vohalarida, jumladan Buxoro viloytidagi Lavondoq ,Quyimozor,Xazora,Quyimozor atrofida, Samarqand vohasidagi Oxalik, Mironqul,Sazog'on qishloqlarida,bizning tadqiqot doiramizga olingan kata Sug'd hududida esa Chelak shahridan 6-7 km sharqdagi Mingchuqur atrofidagi Oqjar qishlog'I yaqinida, G'uddin tog'ining Tumshuq deb yuritiladigan g'arb tomonidankun botishiga qarab cho'zilib ketgan qirlik ustida, Payariq tumaning Cho'rash qishlog'i atrofida, Qo'shrabot tuman hududidagi sirliboytepa yodgorligi yaqinida olib borilgan arxeologik qazishmalar davrida o'rganilganlar. Yuqorida biz tomonimizdan hikoya qilingan mashxur "**Sak malikasi** " kabi ham shu kabi mozor-qo'rg'onlar jumlasiga kiradi.

Bu qadimiy mozor-qo'rg'onlar uchun xos bo'lgan umumiy xususiyat – ularning tashqi ko'rinishi diametri o'rtacha 7-9 m, balandligi 1,5-2,5 m bo'lgan aylana ko'rinishidagi kichik tepaliklar shklida bo'lib, ularning ostida uzunligi 4-5m, eni 1,5-2 m, chuqurligi 3-5 m qilib chuqur kavlangan dramos va uning to'rida, chuqurda joylashgan dafn xonachasidan iboratdir. Bu kabi mozor-qo'rg'onlarda mayit chuqurdagi dafn xonasiga qo'yiladi, agar erkak kishi dafn etilsa uning atrofida turlicha spool idishlar,pichoq va boshqa xo'jlik sabob-uskunalari, jangchi dafn etilgan bo'lsa spool idishlar bilan xanjar, qilich, kamon,nayza kabi jang qurollari qo'yilgan. Agar ayol yoki qiz dafn etilgan bo'lsa turlicha zeb-ziynat buyumlari qo'yilgan. Ayrim xollarda o'lgan kishining tirikligida qaysi hunar bilan mashg'ul bo'lganligini ko'rtasuvchi asobob-uskunalar qo'yilganligi ham olimlar tomonidan qayd etilgan. Chunki ko'chmachilar hammasi yoppasiga chorvodor bo'lmasdan, buyumlaryasovchi turlicha ham kundalik turmushda kerak bo'ladigan buyumlar yasovchi turlicha kasb egalari bo'lganlar. Mayit qo'yilgandan keyn dafn xonasi bilan dromos o'rtasidagi eshiksimon tuynik xom g'isht, tog'li, paxsa yoki toshlar vositasida yopilib, dromos tuoroq, tog'li hududlarda esa toshlar bilan ko'milgan. Keyin esa bu qabrning ustiga tuproq uyulib u tepalik ko'milgan. Keyin esa bu qabrning ustiga tuproq tortilib qabr holatiga keltirgan.

Orlot qishlog'i yaqinidagi mozor-qo'rg'onlardan bir nechtasi 1979-1984 yillar davomida Hamza nomidagi San'atshunoslik espeditsiyasi olimlari tomonidan shu yerdagi Qo'rg'ontepa shahar xarobalari va olov ibodatxonasi o'rganilishi davrida paralel ravishda o'rganilgan (pugachenkova, Karasev, Savchuk, 1983.c. 463-464; Pugachenkova, 1983,480-481).

Boshqa mozor-qo'rg'onlariga dafn etilgan murdalar yoniga turlicha buyumlar qo'yilgaa. Ushbu ekpeditsiya olimlarning takidlashicha, ko'plab mozor-qo'g'onlardagi turlicha buyumlar qadimdayoq o'g'irlab ketilgan. Shunga qaramasdan ular orasida avval ochilmagan qabrlar ham uchrab turadi. Ularning ikkitasini xajmi kattaroq 13x15 sm, to'rttasi esa kichchikroq bo'lib, xajmi 5,5x5 sm. Ushbu suyak plastinkalarining yuza qismiga uchi o'tkir metall qalam vositasida turlicha tasvirlar yuksak maxorat bilan chizilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абу Тохирхожа. Самария. Мерос. Тошкент. 1991 й. 5-81 бетлар; Абу Фазл Муҳаммад ас-Самарқандий. Қандия. Форсчадан К.Каттаев таржимаси. Самарқанд. 1994 й.
2. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Т.: ЎМЭ, 2005.
3. Ғойибов Б. Суғд конфедерациясида Панчнинг ўрни (илк ўрта асрлар). – Т.: Наврўз, 2012.
4. Раимқулов А. Катта Суғд – Суғдиёна: тарихий жараёнлар чорраҳасидаги ўлка. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2017.
5. Смирнова О. Д. Очерки из истории Согда. М.: Изд-во АН СССР, 1970.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

6. Ростовцев О.М. Работы в Самаркандской области//Археологическне открытия 1979 года. М.: Наука, 1980.
7. Бартольд В.В. К истории Орошения Туркестана. Соч. в 9 т. – М.: Наука, 1965. Т.3. – с. 188